



WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF STUDENT ACTIVITIES IN THE INDEPENDENT LEARNING PROCESS

Sanobar Asilova Xatambojeva¹

¹ Namangan State University Theory and history of pedagogy

1st year master's degree,

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4706566>

ARTICLE INFO

Received: 15th April 2021

Accepted: 19th April 2021

Online: 21st April 2021

ABSTRACT

This article discusses ways to improve the effectiveness of student learning in independent learning.

KEY WORDS

education, family,
independent study,
process, ability,
capability, talent,
thinking, knowledge
efficiency, incentives,
motivation.

MUSTAQIL BILIM OLISH JARAYONLARIDA O'QUVCHI FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.

Sanobar Asilova Xatambojeva¹

¹ Namangan State University Theory and history of pedagogy

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-aprel 2021

Ma'qullandi: 19-aprel 2021

Chop etildi: 21-aprel 2021

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mustaqil bilim olish jarayonlarida o'quvchi faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llari haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR

ta'lim-tarbiya, oila,
mustaqil ta'lim, jarayon,
tafakkur, qobiliyat, iqtodori,
fikrlash, bilim
samaradorligi, rag'bat,
motivatsiya.

O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining 64-moddasida "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetkunlaricha boqish va tarbiyalashga majburdirlar" deb ko'rsatib o'tilgan. Farzand dunyoga

kelganidan so'ng, uni voyaga yetkazish, moddiy ta'minlash, o'qitish va tarbiya berish ota-ona zimmasidagi ulkan mas'uliyatdir. Har bir ota-ona farzandini kelajagiga befarq bo'lmasligi, bolaga g'amxo'rlik, oiladagi



huquqini ta'minlash haqida muqaddas kitobimiz Quroni Karimda va Hadislarda ham juda ko'p pand-nasihatlar keltirilgan. Muqaddas Quroni Karim kitobida keltirishicha bola Olloh tomonidan ota-onaga omonat topshirilgan. Anashu omonatni voyaga yetkazish, ilimli, oqila va tarbiyali qilib ulg'aytirish ota-onaning vazifasi sanaladi. Hadislarimizda esa "Beshikdan to qabirgacha ilm izla."- degan hikmatli so'zlarni o'qishimiz mumkin. Bola maktabga kelgunga qadar va maktab davrlarida ham ko'p vaqtlarini oila davrasida o'tkazadi. Bolani mustaqil faoliyatga yo'naltirishning ilk ko'rinishlari aniqroq qilib aytganda oilada shakillanadi.

Mustaqil ishlashga o'rgatish ko'nikmasi shakillangan bolalarda maktab davrida bu o'zini ijobiy samarasini beradi. Ta'lim jatrasyonlarida har bir o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati o'ziga xos va bir-birini takrorlamaydi. O'quvchilarning salohiyati, iqtidori va mustaqil bilim olish jarayonlaridagi faoliyati ham bir xil emas. Shularni hisobga olgan holda aytib o'tish kerakki, o'quvchilar mustaqil bilim olish jarayonlarida fikr yuritishlari, salohiyati bir-birlaridan katta farq qiladi. Pedagogik jarayonda o'quvchilarni mustaqil bilim olishlarini faollashtirish va faoliyatlari samaradorligini oshirish uchun bir qator samarali ishlar olib borilmoqda. O'quvchilarda mustaqil bilim olishni shakillantirishda, unga tayyorlashda o'qituvchidan katta mas'uliyat va materiallarni muammoli tarzda bayon etish kabi yo'llar bilan ta'limni tashkil etish talab etadi. Pedagogik jarayonlarda o'qituvchi bolalarni boshlang'ich sinflardan boshlab mustaqil bilim olishga o'rgatib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mustaqil bilim olish jarayonlari o'quvchilarda avvalo ziyraklikni, hozirjavoblikni, mantiqiy fikrlashni boyitib boradi. Shu sababdan mustaqil bilim olishni

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda uyg'un holda olib borilsa, rivojlanishda ijobiy natijalar yuzaga keladi. Masalan: boshlang'ich sinf o'quvchisidga mustaqil o'qish uchun uyga vazifa qilib ertak berildi. Bola ertakni o'qish uchun o'zi mustaqil harakat qilib bilimni boyitadi. Shu ertakni o'qish jarayonida fikrlaydi. Dunyoqarashi kengayadi. So'z boyligi ortadi. Savollarga javob topishda hozirjavoblik o'rganadi. Bolada shu kabi ijobiy sifatlar shakillanar ekan, buning uchun o'quvchilarni mustaqil bilim olishga ruhan tayyorlash, ularda bajamoqchi bo'lgan ishlarini sifatli qilib bajarishga o'rgatish va eng muhimi o'ziga bo'lgan ishonchni hosil qilish lozim. Boshlang'ich sinflarda mustaqil bilim olishga bolalarni o'rgatish, o'quvchidagi mustaqil bilim olish ko'nikmasini shakillanishiga sabab bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'quvchi mustaqil bo'lmagan faoliyatida o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi, tengdoshlaridan yordam oladi. Mustaqil bilim olish jarayonida esa o'qituvchi bilan kam faoliyatga kirishadi. Mustaqil hech kimni yordamisiz ishlaydi. Bunday vaziyatda o'qituvchi tomonidan o'quvchiga qanday yordam berilishi kerak? Avvalo, ish turlari o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga asoslangan bo'lishi kerak. O'qituvchi bu jarayonda har bir o'quvchining imkoniyatini hisobga olishi, ularni yosh xususiyatlarini, nimalarga qiziqishini ham e'tiborga olishi kerak.

O'quvchilarni mustaqil bilim olish jarayonlarida faoliyatini samaradorligini oshirishda pedagoglar nimalarga amal qilishi kerak?

-o'quvchida mustaqil bilim olishga qiziqish uyg'otish

-o'quvchini mustaqil ishlashga o'rgatish
-mustaqil bilim olish jarayonida o'quvchi faoliyatini faollashtiruvchi topshiriqlarni berib borishi



-topshiriqlarni osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilganligiga e'tibor berishi

-topshiriqlarni o'quvchiga tushunarli bo'lishi va ma'lumotlarni darsliklardan topish imkoniyati borligi

-berilayotgan topshiriqlar o'quvchining yoshiga mos kelishi

- o'quvchilarni faolligini oshiruvchi metodlar bilan ish olib borish

- o'quvchilarni doimo qo'llab-quvvatlash va ularni rag'batlantirib borish

Yuqorida biz pedagoglar uchun tavsiyalarni ko'rib chiqdik. Bu tavsiyalar amalda qo'llanilishi orqali biz o'quvchilarni faollshtirib bilimlarini boyitib boramiz. Bu tavsiyalar natijasi qandy bo'ladi degan savolga esa albatta ijobiy fikrlarni ham topishimiz mumkin. Mustaqil bilim olayotgan o'quvchida mustaqil izlanishi uchun imkoniyat keng bo'ladi. Bu jarayonda o'quvchida oldiga qo'ygan muammoni aniq va tez hal qila olish, tafakkur yuritish qobiliyati faollashadi. Hatto bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarda ham mustaqil bilim olish jarayonida o'zlashtirishning ijobiy tomonlari ko'rinadi. Bunday o'quvchilar mustaqil izlanishlari natijasida o'z imkoniyatlarini ko'rsata oladilar. Yashirin qirralarini namoyon qiladilar. Sababi mustaqil bilim olishga qaror qilgan o'quvchi doimo faol bo'ladi va o'z xatti-harakatlarini idora qila oladi. Kimgadir tobe bo'lishdan yiroq bo'lib mustaqil izlanadi. Mustaqil izlanish jarayonlarida o'quvchi o'zining imkoniyatlarini sinab ko'radi. O'ziga-o'zi baho berishni boshlaydi. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni a'lo darajada bajarishi uchun harakat qiladi. Chunki o'quvchida erkinlik bor, u mustaqil ishlayapti, o'quvchida izlanuvchanlik qobiliyati shakillanib boryapti. Mustaqil bilim olish jarayonida o'quvchida yangi innovatsion g'oyalar paydo bo'lyapti. Bu innovatsiyani

o'qituvchi o'z vaqtida anglab qo'llab-quvvatlashi juda muhimdir.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, yurtimizda ta'lim sohasida o'quvchilarning iqtidori va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularga ilm olishlari uchun keng yo'l ochib berishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Bugungi kunda mustaqil bilim olayotgan o'quvchilarning faoliyatini samarali tashkillash va ularni faolligini oshirish uchun o'quvchidagi mustaqil bilim olishga bo'lgan anglangan ehtiyojni shakillantirish, ularni qo'llab-quvvatlash, faollikka undovchi vazifalarni bajarishlari uchun to'g'ri yo'l ko'rsatib borish pedagoglar zimmasiga yuklatilgan vazifalardan biridir. Ta'limda kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish o'quvchining bevosita nazariy va amaliy bilimlarni boyitib borishga xizmat qiluvchi usullar orqali o'quvchilarni mustaqil bilim olishga o'rgatish zarur. Bilim olish jarayonida o'quvchida o'zligini anglash, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, bilim doirasi naqadar kengligi va tafakkur dunyosini boyligiga bo'lgan ishonchni ortib borishi juda ahamiyatlidir. O'quvchi o'zining imkoniyatini to'g'ri anglab yetsagina uning faolligi oshib boradi. Pedagoglardan o'quvchilarni faoliyatini samaradorligini oshirish uchun e'tibor va maqsadli harakatlar kutib qolinadi. Shu o'rinda rag'bat ham juda katta samara berishini aytib o'tishimiz kerak. Rag'bat orqali o'quvchining maqsadga bo'lgan intilishi jadallashadi, bajarayotgan ishidan ilhomlanib yangi bilimlar olishga ishtiyoq kuchayadi. O'z-o'zini rivojlantirish uchun o'quvchida motivatsiya paydo bo'ladi. Mustaqil bilim olish jarayonlarida o'quvchiga berilgan har bir topshiriqni pedagog albatta tekshirishi shart. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi o'qituvchi rahbarligida ishlaganda tez fikr yuritadi. Qaror qabul qilishda ham



o'quvchida xozirjavoblik, va aniq xulosaga tez kela olishishini kuzatishimiz mumkin. Bu hollga o'rganib qolmasligi uchun o'quvchilarga ko'proq mustaqil o'qib o'rganishga yo'naltirilgan topshiriqlarni berib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu usul mustaqil bilim olish jarayonlarida o'quvchi faoliyatining samaradorligini oshirishga

xizmat qiladi. Mustaqil bilim olish bugungi kunda ta'lim sohasining talabiga aylanib borayapti. Shu sababdan o'quvchi yoshlarimizni ilk maktab davrlaridan boshlab bu jarayonga tayyorlab borishimiz, kelajakda ta'lim sohasida biz kutayotgan ijobiy natijalarga erishishimiz uchun keng yo'l ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ozbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T. 1992 yil 8.12
2. “Tarbiyaning umumiy metodlari” –T. 2017 yil 13.04
3. “Rag’batlantirish metodlari” –T. 2020 yil 16.01
4. “Tarbiyaning umumiy metodlari, mazmuni va mohiyati” -Nukus. 2014 yil